
Farg'ona shahrida ikkita mahallaning yangi binosi foydalanishga topshirildi

Xalqimizda bayramlar arafasida yaxshi niyatlar bilan yangidan qurilgan yoki ta'mirdan chiqqan bino va inshootlarni foydalanishga topshirish an'anaga aylangan. Ayniqsa, Davlat mustaqilligining 31 yilligi bayrami arafasida shahrimizning ko'plab hududlarida yangi va zamonaviy inshootlar qad rostlab, shahrimiz ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda.

Bugun ham shahrimizdagi 1-sektor hududidagi ikkita mahalla fuqarolar yig'inining ma'muriy binosi foydalanishga topshirildi. Tantanali tadbirlarda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, mahalla faollari, nuroniylar, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

"Obod mahalla" Dasturi doirasida "Zarbdor" mahalla fuqarolar yig'inida ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bahor faslining ilk kunlarida qurilishi boshlangan mahalla binosi bugun foydalanishga topshirildi. Bino ro'parasida esa tadbirkor Nail Urazayev tomonidan savdo majmuasi ham qurilib, 10 nafar ishsiz fuqarolarning bandligi ta'minlandi.

Qurbon hayiti bayrami arafasida o'tkazilgan tadbirda shahar hokimi mamlakatimizda mahalla tizimiga berilayotgan e'tibor, tizimda faoliyat olib borayotgan xodimlar hamda fuqarolar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar hamda olib borilayotgan keng qamrovli ishlar haqida alohida to'xtaldi.

Nuroniylar va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida ramziy bog'ich qirgilib, tadbir ishtirokchilari yangi zamonaviy ko'rinishda qurilgan binoda xodimlar hamda fuqarolar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.

Keksa-nuroniylar qo'llarini duoga ochib, yurtimiz tinch, hayotimiz esa farovon bo'lishi hamda ushbu bino mahalla ahliga ko'p yillar davomida xizmat qilishini tiladilar.

Kunning ikkinchi qismida "Abdurahmon Jomiy" mahalla fuqarolar yig'inining ham ma'muriy binosi aholi vakillari ishtirokida foydalanishga topshirildi.

2022-07-13 09:36:39